

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHIGA DOIR YO'RIQNOMA FLYUT ASTEZIN

Preparatning savdo nomi: Flyut Astezin

Ta'sir etuvchi modda (XPN): benzokain

Dori shakli: rektal suppozitoriyalar

Tarkibi:

Har bir rektal suppozitoriy quyidagilarni saqlaydi:

faol modda: benzokain 206 mg;

yordamchi moddalar: metilparaben, propilparaben, makkajo'xori kraxmali, rafinatlangan kakao moyi.

Ta'rifi: oq rangdan och-sariq ranggacha bo'lgan torpeda shaklidagi suppozitoriyalar.

Farmakoterapevtik guruhi: Mahalliy qo'llanish uchun gemorroy va anal yoriqlarini davolash uchun preparat. Mahalliy anestetiklar.

ATX kodi: C05AD03

Farmakologik xususiyatlari

Farmakodinamikasi

Benzokain neyron membranasini qaytariluvchan barqarorlashtiradi, bu uning natriy ionlari uchun o'tkazuvchanligini kamaytiradi.

Neyron membranasining qutbsizlanishi susaytiradi, nerv impulsining shakllanishi va o'tkazilishi blokirovka qilinadi. Shunday qilib, benzokain yaqqol ifodalangan mahalliy og'riqsizlantiradigan samarani namoyon qiladi.

Farmakokinetikasi

Mahsulot mahalliy qo'llanilish uchun mo'ljallangan. Uning tarkibiga kiruvchi benzokain shilliq bilan chiqariladi yoki juda kam miqdorlarda buyraklar orqali chiqariladi.

Qo'llanilishi

Tashqi va ichki gemorroy, anus sohasidagi yoriqlar, eroziyalar va mikro-jarohatlar, yaqqol ifodalangan og'riqli sindrom bilan perianal qichish. Proktologik jarrohlik aralashuvlardan so'ng og'riqsizlantiruvchi preparat sifatida qo'llaniladi.

Qo'llash usuli va dozalari

Preparat gigiyenik muolajalardan so'ng qo'llanilishi kerak. Ertalab defekasiyadan so'ng va uxlashdan oldin 1 tadan suppozitoriy orqa teshikka tiqiladi. Sutkalik doza – bir sutkada eng ko'pi bilan 4 marta. Preparatning muntazam ravishda qo'llanilishi turg'un terapevtik samarani, gemorroy simptomlari kamayishini ta'minlaydi. Davolashning davom etish muddati, odatda, 1 haftani tashkil etadi. Zarur hollarda, u 3 haftagacha va undan ko'proq muddatga uzaytirilishi mumkin (shifokor bilan maslahatlashilganidan so'ng).

Nojo'ya ta'sirlar

Kamdan-kam holatlarda quyidagi noxush ta'sirlar kuzatilgan:

- kontakt dermatit;
- teri allergik reaksiyalari (giperemiya, teri toshmasi, qichishish).

Juda kam hollarda benzokainning yuqori dozalari metgemoglobinemiya: teri, lab va tirnoq plastinalari sianoz, bosh og'rish, bosh aylanishi, dispnoe (hansirash), toliquvchanlik va taxikardiya chaqirishi mumkin.

Agar ushbu ta'sirlardan biron-biri saqlanib qolsa yoki kuchaysa, preparat qo'llanilishini to'xtatish va shifokor bilan maslahatlashish kerak.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar

Ushbu preparat quyidagilar bo'lgan pasiyentlarga qo'llanilishi mumkin emas:

- Preparatning tarkibiy moddalaridan istalgan biriga yuqori sezuvchanlik;
- tromboembolik kasallik;
- granulositopeniyada;
- 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llash mumkin emas.

Dorilarning o'zaro ta'siri

Preparatning shifokor kuzatuviziz monoaminoksidaz (MAO) ingibitorlari, antidepressantlar yoki gipotenziv preparatlar bilan bir vaqtda qo'llanilishi tavsiya etilmaydi.

Maxsus ko'rsatmalar

Quyidagi holatlarda qo'llanishdan oldin shifokor bilan maslahatlashish kerak:

- og'ir darajali arterial gipertenziya;
- yurak ritmining jiddiy buzilishi;
- klinik jihatdan yaqqol ifodalangan tireotoksikoz;
- siyish buzilishi.

Ko'p qon aralash anal ajralmalarida yoki simptomlar 7 kundan ko'proq saqlanib qolgan holatda proktologga murojaat qilish kerak.

12 yoshgacha bo'lgan bolalar: preparat faqat shifokor buyurishi bo'yicha qo'llanilishi mumkin.

Preparatning minimal miqdorini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Benzokainni saqlaydigan preparatlar qo'llanilishi metgemoglobinemiya olib kelishi mumkinligi to'g'risida ma'lum qilingan. Davolash vaqtida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan teri, lab va tirnoq plastina sianosi, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, hansirash (qiyinlashgan nafas olish), madorsizlik, taxikardiya kabi simptomlar metgemoglobinemiya dalolat berishi mumkin, u hayot uchun potentsial xavfli bo'lib, tez tibbiy aralashuvni talab qiladi.

Astma, bronxit yoki emfizema kabi nafas olish muammolari bo'lgan pasiyentlar, yurak kasalliklari bo'lgan pasiyentlar va chekuvchi pasiyentlar metgemoglobinemiya bilan bog'liq asoratlar katta xavfiga uchraydilar.

To'rt oylikkacha yoshdagi chaqaloqlar, keksa yoshdagi pasiyentlar hamda glyukozo-6-fosfodiesteraz tanqisligi, gemoglobin-M kasalligi, NADH-metgemoglobinreduktaz (diaforaz 1) tanqisligi va piruvatkinaz tanqisligi kabi ayrim tug'ma nuqsonlari bo'lgan pasiyentlar ham metgemoglobinemiya rivojlanish yuqori xavfiga ega bo'lishlari mumkin.

Homiladorlik va laktasiya davrida qo'llanilishi

Homiladorlik va laktasiya davrida preparat faqat shifokor tomonidan xavf va foyda nisbati baholanganidan so'ng qo'llanilishi mumkin.

Avtotransportni va boshqa mexanizmlarni boshqarish qobiliyatiga ta'siri

Avtomobilni boshqarish yoki mexanizmlar bilan ishlash qobiliyatiga ta'siri ma'lum emas.

Dozaning oshirib yuborilishi

Tavsiya etiladigan dozalar sezilarli oshirib yuborilgan holatda, qonning tezlashgan quyulishiga moyillik kuzatilishi mumkin.

Doza oshirib yuborilgan holatda benzokainning tizimli so'rilishi uyquchanlik, bezovtalik, ta'sirchanlik va og'ir darajali holatlarda tirishishlar orqali namoyon bo'lishi mumkin. Benzokain preparatlari qo'llanilishi metgemoglobinemiya chaqirishi mumkinligini taxmin qiladigan ma'lumotlar tushgan. Davolash vaqtida paydo bo'ladigan sianoz (teri, lab va tirnoq plastinasini oqish, kul rang yoki ko'k rangi), bosh og'rig'i, bosh aylanishi, dispnoe (hansirash),

toliquvchanlik va taxikardiya kabi simptomlar hayot uchun potensial xavfli metgemoglobinemiya dalolat berishi mumkin va darhol tibbiy aralashuvni talab qiladi. Boshqa simptomlar preparat qo'llanilishini va simptomatik davolash to'xtatilishini talab qilishi mumkin.

Chiqarilish shakli

PVX/PE striplarda 6 tadan suppozitoriy. 1 tadan yoki 2 tadan bunday strip tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomasi bilan birga karton o'ramga joylangan.

Saqlash sharoiti

Quruq, yorug'likdan himoyalangan joyda 25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlansin. Bolalar ololmaydigan joyda saqlansin.

Yaroqlilik muddati

2 yil.

Yaroqlilik muddati tugaganidan so'ng qo'llanilmasin.

Dorixonalardan berilish tartibi

Resetsiz beriladi.

Ishlab chiqaruvchi

Kusum Healthcare Pvt. Ltd Hindiston.

Ishlab chiqarish manzili

SP-289(A), RIICO Industrial Area, Chopanki, Bhiwadi, Dist. Alwar (Rajasthan), Hindiston.

O'zbekiston Respublikasi hududida dori preparatlarining sifati bo'yicha e'tirozlar (takliflar)ni qabul qiluvchi tashkilot nomi va manzili

"BARAKA DORI FARM" MChJ XK

100022, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Halqa Yo'li ko'chasi, 91.

Tel.: + 998 78 150 97 97; faks: + 998 78 150 97 87

Uyali tel.: + 998 93 388 87 82

E-mail: pv@kusum.uz

Web-sayt: kusum.uz